



Tashkent State University of Economics

JOURNAL OF INTERNATIONAL FINANCE AND ACCOUNTING

ISSN
2181-1016



MAMLAKAT BANK TIZIMI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI

F.K.Xolmamatov

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik
akademiyasining professori*

E-mail: fkholmamatov@gmail.ru

ORCID: 0000000341860691

MODERN MECHANISMS FOR ENSURING FINANCIAL STABILITY IN THE NATIONAL BANKING SYSTEM

F.K.Xolmamatov

*Professor at the International Islamic
Academy of Uzbekistan*

E-mail: fkholmamatov@gmail.ru

ORCID: 0000000341860691

JEL classification: G21, G28, G32

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlari tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida bank tizimi moliyaviy barqarorligining nazariy asoslari, kapital yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari, likvidlik darajasi hamda barqaror moliyalashtirish manbalarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR) kabi asosiy prudensial ko'rsatkichlar asosida bank tizimi moliyaviy barqarorligi baholangan. Maqolada risklarni boshqarish, makroprudensial nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda Basel III xalqaro standartlarini joriy etishning bank tizimi barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida mamlakat bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: bank tizimi, moliyaviy barqarorlik, kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi, LCR, NSFR, risklarni boshqarish, makroprudensial nazorat, Basel III, bank barqarorligi..

Abstract: This article examines modern mechanisms for ensuring the financial stability of a country's banking system. The study analyzes the theoretical foundations of banking system stability, the role of capital adequacy, asset quality, profitability indicators, liquidity management, and stable funding sources in maintaining financial stability. Special attention is given to the assessment of financial stability through key prudential indicators, including Return on Assets (ROA), Return on Equity (ROE), Liquidity Coverage Ratio (LCR), and Net Stable Funding Ratio (NSFR). The article also explores the importance of risk management, macroprudential regulation, and the implementation of Basel III standards in strengthening the resilience of the banking sector. Based on the analysis, practical recommendations are proposed to

enhance the financial stability of the national banking system under conditions of economic uncertainty and financial market volatility.

Key words: banking system, financial stability, capital adequacy, liquidity, profitability, ROA, ROE, LCR, NSFR, risk management, Basel III, macroprudential regulation, banking resilience.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari, moliya bozorlarining integratsiyalashuvi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi bank tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bunday sharoitda mamlakat bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, investitsiya faolligini qo'llab-quvvatlash va milliy moliya tizimining samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so'nggi yillarda dunyo iqtisodiyotida yuzaga kelgan moliyaviy inqirozlar, geosiyosiy beqarorlik, inflyatsion bosimlar va tashqi iqtisodiy shoklar bank tizimining barqarorligini ta'minlash masalasini yanada dolzarblashtirdi.

Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati, daromadlilik ko'rsatkichlari hamda risklarni boshqarish tizimining samaradorligi muhim ahamiyatga ega. Xususan, Basel III xalqaro standartlari doirasida joriy etilgan likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR), sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR), kapital yetarliligi va boshqa prudensial ko'rsatkichlar bank tizimi barqarorligini baholashning muhim mezonlari hisoblanadi.

O'zbekistonda ham bank-moliya sektorini isloh qilish, banklarning kapitallashuv darajasini oshirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish va xalqaro standartlarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga

oshirilmoqda. Bu esa mamlakat bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish va uning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mamlakat bank tizimini isloh qilish strategiyasida "...kredit portfeli va tavakkalchiliklarni boshqarish sifatini yaxshilash, kreditlash hajmlarining mo'tadil o'sishiga amal qilish, muvozanatlashgan makroiqtisodiy siyosat yuritish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro amaliy tajribaga ega bo'lgan menejerlarni jalb qilish, moliyaviy tavakkalchiliklarni baholash uchun texnologik yechimlarni tatbiq etish orqali bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlash" ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berilgan [1].

Shundan kelib chiqqan holda, mamlakat bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlarini tadqiq etish, moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni baholash hamda mazkur sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi..

Adabiyotlar sharhi. AQSHlik taniqli iqtisodchi olim Edvin Dj. Dolan tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy e'tibor yuqori likvidli aktivlar bilan yuqori daromadli aktivlar o'rtasidagi nisbatning oqilona darajasini ta'minlash lozim, deb hisoblaydi [2].

F.Mishkinning xulosasiga ko'ra, "tijorat banklarining barqarorligini ta'minlashda moliyaviy innovatsiyalarga asosiy e'tiborni qaratish lozim. Foiz stavkalarining sezilarli darajada tebranishi yangi moliyaviy mahsulotlarga bo'lgan talabning o'zgarishiga bevosita va kuchli ta'sir qiluvchi muhim iqtisodiy omil hisoblanadi". Olimning ushbu fikrlari bugungi kunda nihoyatda dolzarb bo'lgan

masalalarni keltirib o'tadi. Jumladan, banklar yuqori raqobat sharoitida moliyaviy barqarorlikka erishish uchun innovatsion yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini taklif etishi zarur [3].

Iqtisodchi olimlardan L.Laven va G.Maynoni fikricha, "iqtisodiy o'sish davrida moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun yetarli rezervlar yaratadigan banklar iqtisodiy tanazzulning salbiy oqibatlarini minimallashtirishi va kredit taklifini yuqori darajada saqlashi mumkin" [4]. Ushbu fikr-mulohazalar o'rinli bo'lib, banklarning inqiroz sharoiti uchun rezervlarni shakllantirib borishi va ularning hisobidan zararlarni kamaytirish banklarning barqarorligini saqlab qolishga xizmat qiladi.

K.Surovneva ilmiy tadqiqotlarida "bankning moliyaviy holati uning qolgan barcha sohalaridagi faoliyatiga, shuningdek, moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Bankning moliyaviy barqarorligi uning likvidliligi bilan uzviy bog'liqdir" deya fikr bildirgan [5]. Tijorat banklarining barqarorligi mamlakatda bank sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda bank tizimini boshqarish bilan bog'liq qarorlar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir qilishi mumkin.

Professor O.Lavrushinning fikriga ko'ra, "tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda asosiy e'tibor guruhlash va tarkibiy tahlilga qaratilishi lozim, shundagina har bir guruh operatsiyalardan olingan foydaning darajasi va barqarorligiga real baho berish mumkin" [6]. Olim tomonidan nazarda tutilgan jihatlar e'tiborga sazovordir. Albatta, moliyaviy barqarorlikni baholashda ta'sir qiluvchi omillarni guruhlash orqali ularning tarkibiy tuzilmaga bog'liqligini aniqlab olish, umumiy holda faoliyatning tizimlashtirilgan holatini ochib berish hamda ular to'g'risida tasavvur hosil qililishga xizmat qiladi.

Sh.Abdullayeva "tijorat banklari faoliyatidagi kredit riskini boshqarishni takomillashtirish yo'li bilan kredit portfelining sifatini oshirish mumkin" deb hisoblaydi [7]. Olim tomonidan tijorat banklarining bevosita moliyaviy barqarorligiga kredit riskining ta'siriga e'tibor qaratilgan. Kredit portfelining sifatini yaxshilash orqali kredit riskining pasayishi va moliyaviy barqarorlikni oshirish mumkinligi muhim masala sifatida ochib berilgan.

G.Melikyaning fikricha, "mikro daraja banklar moliyaviy barqarorligi – banklarning har qanday sharoitda mijozlar bilan bog'liq maqsad va vazifalarini bajarishda bank faoliyati davomiyligini ta'minlash, makro darajada esa, banklar moliyaviy barqarorligini iqtisodiyot turli subyektlari bilan bog'lagan holda bank tizimi turli iqtisodiy qiyinchiliklarni oldini olish, tizim barqarorligini ta'minlashda" deb hisoblaydi [8]. Ushbu qarashlarda banklarning moliyaviy barqarorligi mikro va makro darajada to'la ochib berilgan.

T.I.Bobakulovning fikricha, "banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashning asosiy omili bank aktiv va passivlari o'rtasida ularning muddati va hajmi bo'yicha mutanosibligini ta'minlash" moliyaviy barqarorlikning kafolati bo'lishi mumkin [9]. Muallifning ta'biricha, moliyaviy barqarorlik jalb qilingan mablag'lar bilan joylashtirilgan mablag'larning samarali boshqarilishi natijasida ta'minlanadi.

Mahalliy tadqiqotchilardan N.Sharipova bank tizimi moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda kiberxavfsizlikni kuchaytirish borasidagi ilmiy izlanishlar olib borgan. Unga ko'ra, "Markaziy bankda bank va moliya-kredit sohasida axborot va kiberxavfsizlik tahdidlarining oldini olish hamda moliyaviy firibgarliklarga qarshi ta'sir choralari

ko'rish va tekshirish (FINCERT) markazini tashkil etish barobarida ushbu markazning faoliyatida hamdo'stlik mamlakatlarining tartibga soluvchi organlari bilan hamkorlik o'rnatishiga va kiberxavflar, hujumlar, ularni bartaraf etish chora-tadbirlari to'g'risida ma'lumotlar almashinuvini yo'lga qo'yish" ustuvor yo'nalish sifatida keltirilgan [10]. Tadqiqotchini banklarning barqarorligiga bergan ta'rifi juda o'rinli bo'lib, unda nafaqat moliyaviy tomonini, balki banklar barqarorligini texnik, axborot texnologiyalari tomonidan ham fikr yuritilgan.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda mamlakat bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlarini o'rganish va baholash maqsadida ilmiy bilishning bir qator usullaridan foydalanildi. Xususan, bank tizimi barqarorligining nazariy va metodologik asoslarini yoritishda ilmiy abstraksiya, analiz va sintez, induksiya va deduksiya usullari qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida mamlakatimiz va xorijiy davlatlar bank tizimlarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, bank tizimi moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda statistik tahlil, iqtisodiy-matematik yondashuvlar hamda dinamik qatorlar tahlili usullaridan foydalanildi. Banklar faoliyatining moliyaviy barqarorligini baholashda kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati, rentabellik va risk ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo'mitasi, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), World Bank va Bank for International Settlements ma'lumotlaridan foydalanildi.


Natijalar. Bank aktivlari rentabelligi (ROA) bank moliyaviy barqarorligini baholovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. U bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini va ularning daromad keltirish qobiliyatini aks ettiradi. Aktivlar rentabelligi qanchalik yuqori bo'lsa, bankning moliyaviy barqarorligi shunchalik mustahkam bo'ladi.

Birinchidan, yuqori ROA bankning barqaror foyda olish imkoniyatini ta'minlaydi. Olingan foyda bank kapitalini oshirish, zaxiralar shakllantirish va ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu esa bankning tashqi shoklarga va iqtisodiy inqirozlarga chidamliligini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, aktivlar rentabelligining o'sishi bankning likvidligi va to'lov qobiliyatini yaxshilaydi. Daromadli aktivlar ulushining yuqori bo'lishi bankning o'z majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish imkoniyatini oshiradi va moliyaviy xavflarni kamaytiradi.

Uchinchidan, yuqori rentabellik investorlar va omonatchilarning bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. Bu esa resurs bazasining kengayishiga, depozitlar hajmining ortishiga va moliyaviy barqarorlikning yanada kuchayishiga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, aktivlar rentabelligining haddan tashqari yuqori bo'lishi har doim ham ijobiy holat emas. Ayrim hollarda yuqori daromadlilik yuqori riskli aktivlarga investitsiya kiritish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday vaziyatda qisqa muddatli foyda oshishiga qaramasdan, kelajakda kredit risklari va moliyaviy yo'qotishlar ortishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun aktivlar rentabelligini risklar darajasi bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiqdir.




1-rasm. 2025-yilda bank tizimi aktivlari rentabelligi dinamikasi, foizda [11]

Tahlil qilinayotgan davrda bank aktivlari rentabelligi (ROA) yil boshida 2,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, fevral va mart oylarida 2,1 foizga, aprel oyida 2,0 foizga pasaygan. May oyida esa ko'rsatkich eng past darajaga tushib, 1,9 foizni tashkil etgan. Bu holat bank aktivlarining daromadlilikini ma'lum darajada kamayganligini yoki aktivlar hajmining foydaga nisbatan tezroq o'sganligini ko'rsatishi mumkin. Iyun oyidan boshlab aktivlar rentabelligi yana tiklanish tendensiyasini namoyon etgan va iyun–sentyabr oylari davomida 2,0 foiz darajasida saqlanib qolgan. Oktyabr va noyabr oylarida ko'rsatkich 2,1 foizgacha oshgan bo'lsa, dekabr oyida yil boshidagi darajaga qaytib, 2,2 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, yil davomida aktivlar rentabelligi 1,9–2,2 foiz oralig'ida tebrangan bo'lib, maksimal va minimal qiymatlar o'rtasidagi farq atigi 0,3 foiz bandni tashkil etadi. Bu bank aktivlaridan foydalanish samaradorligi barqaror bo'lganligini va daromadlilikda keskin o'zgarishlar kuzatilmaganligini anglatadi.

Yil yakunida ROAning 2,2 foizga yetganligi bank aktivlarini boshqarish samaradorligi oshganligini, daromad keltiruvchi aktivlar ulushi yuqoriligini hamda bankning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanganligini ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda banklar uchun 1 foizdan yuqori ROA ijobiy baholanganligini hisobga olganda, tahlil qilinayotgan bankning aktivlar rentabelligi yuqori darajada bo'lib, aktivlardan samarali foydalanilayotganligini ko'rsatadi.

Bank tizimi moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi keyingi ko'rsatkich bu bank kapitali rentabelligi hisoblanadi. Kapital rentabelligi (Return on Equity – ROE) bank moliyaviy barqarorligini baholovchi muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, aksiyadorlar tomonidan kiritilgan kapitalning qay darajada samarali foydalanilayotganligini ifodalaydi. U bankning sof foydasini xususiy kapitalga nisbatan baholash orqali aniqlanadi va kapitaldan foydalanish samaradorligini ko'rsatadi.




2-rasm. 2025-yilda bank tizimi kapitali rentabelligi dinamikasi, foizda [11]

Tahlil qilinayotgan davrda bank kapital rentabelligi (ROE) yil boshida 12,1 foizni tashkil etgan bo‘lib, fevral va mart oylarida 11,6 foizga, aprel oyida 10,9 foizga pasaygan. May oyida esa ko‘rsatkich yil davomidagi eng past darajaga tushib, 10,3 foizni tashkil etgan. Bu holat bankning xususiy kapitaliga nisbatan olinayotgan foyda miqdori qisqarganligini ko‘rsatadi. Iyun oyidan boshlab kapital rentabelligi qayta tiklanish tendensiyasini namoyon etgan. Iyun va iyul oylarida 10,8 foiz, avgust va sentyabr oylarida 11,2 foiz darajasiga yetgan. Oktyabr va noyabr oylarida ko‘rsatkich yana oshib, 11,9 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, dekabr oyida 12,4 foizgacha ko‘tarilib, yil davomidagi eng yuqori natija qayd etilgan.

Yil davomida kapital rentabelligi 10,3–12,4 foiz oralig‘ida o‘zgargan bo‘lib, maksimal va minimal qiymatlar o‘rtasidagi farq 2,1 foiz bandni tashkil etgan. Bu o‘zgarishlar bankning foydasi va kapital hajmidagi mavsumiy yoki operatsion o‘zgarishlar bilan izohlanishi mumkin. Kapital rentabelligining yil oxiriga kelib o‘sishi bank aksiyadorlari mablag‘laridan samarali foydalanilayotganligini, sof foydaning o‘sishini hamda kapital boshqaruvi samaradorligi oshganligini

ko‘rsatadi. ROE ko‘rsatkichining 10 foizdan yuqori darajada saqlanishi bankning investitsion jozibadorligi va moliyaviy barqarorligi nuqtayi nazaridan ijobiy holat hisoblanadi. Likvidlikni qoplash me‘yori koeffitsiyenti bankning qisqa muddatli likvidlik xavflarini boshqarish qobiliyatini baholovchi muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. U bankning yuqori likvid aktivlari 30 kunlik ehtimoliy sof pul chiqimlarini qay darajada qoplay olishini ko‘rsatadi. Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori bankning uzoq muddatli moliyalashtirish barqarorligini baholovchi ko‘rsatkich bo‘lib, aktivlar va operatsiyalarning barqaror moliyalashtirish manbalari bilan ta‘minlanganlik darajasini ifodalaydi.

LCR va NSFR bank likvidligi hamda resurs bazasining barqarorligini ta‘minlovchi asosiy prudensial me‘yorlar hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning normativ darajadan yuqori bo‘lishi bankning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarini o‘z vaqtida bajara olishini, tashqi iqtisodiy shoklarga chidamliligini hamda umumiy moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydi. Shu sababli mazkur koeffitsiyentlar zamonaviy bank nazorati va moliyaviy barqarorlikni baholashning muhim indikatorlari sifatida qaraladi.



3-rasm. 2025-yilda bank tizimi likvidlilik ko'rsatkichlari dinamikasi, foizda [11]

Tahlil qilinayotgan davrda bankning likvidlilikni qoplash me'yori ko'effitsiyenti (LCR) yil boshida 189,4 foizni tashkil etgan bo'lib, fevral–mart oylarida mos ravishda 194,7 va 196,8 foizgacha oshgan. Aprel–may oylarida ko'rsatkichda biroz pasayish kuzatilib, may oyida 191,7 foizni tashkil etgan. Keyingi oylarda esa LCR yana o'sish tendensiyasini namoyon qilib, avgust va sentyabr oylarida 198,4 foizga yetgan. Noyabr oyida 189,2 foizgacha pasaygan bo'lsa-da, dekabr oyida 207,5 foizgacha o'sib, yil davomidagi eng yuqori daraja qayd etilgan.

Umuman olganda, LCR ko'rsatkichi yil davomida 189,2–207,5 foiz oralig'ida shakllangan bo'lib, xalqaro Basel III talablarida belgilangan 100 foizlik minimal me'yordan qariyb ikki baravar yuqori bo'lgan. Bu bankning qisqa muddatli likvidlik xavflarini samarali boshqarayotganligini va ehtimoliy likvidlik shoklariga qarshi yetarli darajada yuqori likvid aktivlarga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR) yil boshida 113,8 foizni tashkil etgan bo'lib, mart–aprel oylarida 116,2–116,4 foizgacha oshgan.

May oyida biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, keyingi oylarda ko'rsatkich asosan 116–117 foiz atrofida saqlangan. Dekabr oyida esa 119,9 foizga yetib, yil davomidagi eng yuqori natija qayd etilgan.

NSFR ko'rsatkichining butun yil davomida 113,8–119,9 foiz oralig'ida saqlanishi bank aktivlarining barqaror moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlanganligini hamda uzoq muddatli likvidlik risklari past darajada ekanligini anglatadi. Mazkur ko'rsatkichning ham Basel III talablarida belgilangan 100 foizlik normativdan yuqori bo'lishi bank resurs bazasining mustahkamligini tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari mamlakat bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, moliyaviy xavfsizlikni mustahkamlash va moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ko'rsatdi. Globallashuv, raqamli transformatsiya va moliya bozorlaridagi o'zgarishlar sharoitida bank tizimining barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini qo'llash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tahlillar natijasida bank tizimining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida kapital yetarliligi, aktivlar sifati, rentabellik ko'rsatkichlari, likvidlik darajasi va barqaror moliyalashtirish manbalari aniqlandi. Xususan, aktivlar rentabelligi (ROA) va kapital rentabelligi (ROE) ko'rsatkichlarining yil davomida barqaror saqlanishi banklarning daromadli faoliyat yuritayotganligini hamda kapital va aktivlardan samarali foydalanilayotganligini tasdiqladi.

Shuningdek, likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR) va sof barqaror moliyalashtirish me'yori (NSFR) ko'rsatkichlarining xalqaro Basel III talablarida belgilangan normativ darajadan yuqori bo'lishi bank tizimining qisqa va uzoq muddatli likvidlik risklariga qarshi yetarli himoyaga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa banklarning moliyaviy shoklarga chidamliligini oshirish va omonatchilar hamda investorlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot asosida mamlakat bank tizimi moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash uchun risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, kapitallashuv darajasini oshirish, likvidlikni samarali boshqarish, raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish hamda makroprudensial nazorat mexanizmlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqligi asoslandi.

Umuman olganda, mamlakat bank tizimida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi kuzatilmoqda. Biroq tashqi iqtisodiy noaniqliklar va moliya bozorlaridagi o'zgaruvchanlik sharoitida banklar tomonidan zamonaviy risk-menejment instrumentlarini keng joriy etish, kapital va likvidlik zaxiralarini yetarli darajada saqlash hamda xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat yuritish moliyaviy barqarorlikni

uzoq muddatli ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib qoladi.

Mamlakat bank tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlash maqsadida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

bank kapitallashuv darajasini oshirish orqali kapital yetarliligi ko'rsatkichlarini xalqaro standartlar talablari darajasida saqlash va banklarning risklarni qoplash imkoniyatlarini kengaytirish;

aktivlar sifatini yaxshilash va muammoli kreditlar ulushini qisqartirish maqsadida kredit portfelini diversifikatsiya qilish, qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini baholash tizimini takomillashtirish va kredit risklarini boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish;

likvidlikni boshqarish samaradorligini oshirish, xususan LCR va NSFR ko'rsatkichlarini normativ talablardan yuqori darajada saqlash orqali banklarning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarni bajarish qobiliyatini mustahkamlash;

raqamli bank texnologiyalari va sun'iy intellekt elementlarini keng joriy etish orqali operatsiya xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sifatini oshirish va moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish;

makroprudensial nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda bank tizimida stress-test sinovlarini muntazam o'tkazish orqali ehtimoliy xavflarni oldindan aniqlash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi mamlakat bank tizimining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, banklar raqobatbardoshligini oshirish va iqtisodiyotni barqaror moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni
2. Edwin G Dolan. Journal of Comparative Economics, Volume 2, Issue 4, December 1978, Pages 407-408.
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0147596778900185>
3. Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых циклов. 7-е изд. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2013. – С.295.
4. Laeven, L., & Majnoni, G. (2003). Loan loss provisioning and economic slowdowns: Too much, too late? Journal of Financial Intermediation, 12(2), 178–197
5. Surovneva K. Инструментарий оценки устойчивости российских банков, диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – Санкт Петербург, 2018.
6. Лаврушин О.И. Банковское дело. – М.: КноРус, 2008. – С. 251.
7. Abdullayeva Sh.Z. Bank risklari sharoitida tijorat banklarining kredit portfelini diversifikatsiyalash. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. –Toshkent, 2000. -46 b.
8. Шальпанов П.А. Управление ликвидностью: механизм прогноза денежных потоков банка. // Банковское дело. -2014. -№9. -56-60 стр.
9. Bobakulov T.I. O'zbekiston Respublikasida milliy valyuta kursining barqarorligini ta'minlash borasidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. avtoreferati. -Toshkent, 2008.-45 b.
10. Sharipova N.H. Banklar moliyaviy barqarorligini kuchaytirishda kiberxavfsizlikni ta'minlash masalalari. // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari// 2022-y.